

AFSONA VA RIVOYATLARNI O'QITISHDA KO'RGAZMALILIK TURLARI

Zakirova Maqsuda Atayevna*UrDU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya. Bugungi kunda ona tili va adabiyot mashg'ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish samara bermoqda. Har bir mavzuga interfaol metodlarni tatbiq qilgan holda dars o'tish pedagoglardan yuqori kasbiy mahorat talab qiladi. Ushbu maqolada afsona va rivoyatlarni o'rgatishda ko'r gazmalilikning o'rni, roli, turlari bo'yicha dars o'tish turlari haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: afsona, rivoyat, ifodali so'z ko'r gazmaliligi, grafik (chizma) ko'r gazmalilik, slaydli namoyish

Rivoyat va afsonalar boy ijodiy salohiyatga ega ajdodlarimizning ko'p asrlik folklor an'analari, turmush tarzi, tarixi, dunyoqarashi, turli e'tiqodiy qarashlari haqida teran ma'lumot berishi jihatidan hozirgi yosh avlod tarbiyasiga kuchli badiiy-estetik va ruhiy-ijtimoiy ta'sir ko'rsatish imkoniga ega. Ularni o'rganish orqali millatimiz ma'naviyati tarixiga oid yangidan-yangi ma'lumotlarni bilib olish mumkin. Shuni inobatga olib, amaldagi o'quv darsliklariga ko'plab afsona va rivoyat matnlari kiritilgan. Ularning mazmunini va o'ziga xos badiiy xususiyatlarini o'quvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tushuntirish katta samara beradi. voyat va afsonalar bizgacha mavjud tarixiy va etnografik adabiyotlar, shuningdek, xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot sahifalari, ya'ni u yoki bu ijodkor yoxud olimning asari Beruniyning «O't mish xalqlardan qolgan yodgorliklar» asaridagi «Kayumars» afsonasi, Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi Siyovush afsonasi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» kitobidagi «Oltin qon» rivoyati, yunon tarixchilari Gerodotning “Tarix” asaridagi “To'maris”, Polienning “Harbiy hylalar” asaridagi “Shiroq” rivoyatlari shular jumlasidandir. Umuman, turli tarixiy asarlar, diniy kitob va yodnomalarda juda ko'p afsona va rivoyatlar bizgacha yetib kelgan.

sh va ommalashtirish, asosan, XIX asrning oxirlaridan boshlangan. O'sha davr vaqtli matbuoti bu sohada fidoyilik ko'rsatgan. O'zbek xalq rivoyat va afsonalarini yozib olib, ommalashtirishga nisbatan ilmiy e'tibor esa XX asrning 30- yillarida Shayxova), “O'zbek xalq asotirlari”, “Ipak yo'li afsonalari” (Mamatqul Jo'raev), “Bobolardan qolgan naqllar” (Mamatqul Jo'raev, Ulug'bek Sattorov), “Buxoro afsonalari” (Mamatqul Jo'raev. Rohatoy Saidova) kabi to'plamlarda afsonalarning ko'plab namunalari e'lon qilindi.

O'zbek xalq rivoyat va afsonalarini o'rganishda quyidagicha ko'r gazmalilikdan

foydalanish mumkin. Binobarin, o'zbek xalq rivoyat va afsonalarini o'rganishda, darsni ta'sirchan va qiziqarli tashkil etish uchun doska va bo'r, jadval va rasmlar bilan bir qatorda boshqa turli-tuman devorga osiladigan ko'rgazmali vositalardan hamda murakkab texnik apparatlardan foydalanish o'quvchilarning o'quv materialini chuqur

Ayniqsa, "To'maris" va "Shiroq" rivoyatlarini o'qitishda ko'rgazmalilikdan foydalanish ularning o'qitilishini jozibador va tushunarli qiladi. Darsning samaradorligini oshiradi. O'quvchilarning o'quv materialini puxta o'zlashtirishida muhim rol o'yndaydi.

"To'maris" va "Shiroq" rivoyatlarini o'rganishda quyidagi ko'rgazmali

1. Ifodali so'z ko'rgazmaliligi. Darsda bu rivoyatlar ifodali o'qitilsa, ularning mazmuni o'quvchilarning onggiga tezroq singgadi. Har ikkala rivoyatning axloqiyta'limiy ta'siri kuchli bo'ladi. Bolalarda estetik did va zavq uyg'onadi, yangi tushuncha va fikr hosil qiladi, ularni vatanparvarlikka undaydi. Ifodali o'qish o'quvchilarning

2. "To'maris" va "Shiroq" rivoyatlari mazmuni va undagi personajlar asosida ishlangan rasmlar, illyustrastiyalardan foydalanish o'quvchilar qiziqishini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Ular orqali o'quvchilarning asar mazmunini tez o'

3. Grafik (chizma) ko'rgazmalilik. Bunda rivoyat qahramonlari nomi yozilgan yoki rivoyat va afsonalarning ichki tasnifoti keltirilgan jadvallardan foydalanish mumkin. Chunki bunday ko'rgazmalar o'quvchilarning rivoyatlardagi personajlarning, joylarning nomini, afsona va rivoyatlarning ichki bo'linishlarini tez xotirasida saqlab

4. Doska-ko'rgazmalilikdan foydalanib, rivoyatda makon va qahramonlar nomi doskaga yozib borilsa, asar mazmuni o'quvchilar xotirasida uzoq muddat saqlanib

5. "To'maris" va "Shiroq" rivoyatlarini o'rganishda kompyuterda tayyorlangan rangli slaydlardan ham foydalanish mumkin. Slaydda dostonning asosiy syujet motivlarini ketma-ketlikda yozib ko'rsatish mumkin. Yoki darsni mustahkamlovchi savollarni hamda test topshiriqlarini slayd orqali o'quvchilar e'tiboriga havola qilsa bo'ladi. Chunki slayd ham o'quvchilarga o'quv materialini puxta eslab qolishga katta

dan biri bo'lib, ularni o'quvchilarga o'rgatishda qulay hozirgi zamonaviy usullardan foydalanish mumkin. Ta'lim va tarbiya sifatini oshirish, har bir predmetni o'qitishning yuqori saviyada bo'lishiga erishish, fan asoslarini mustahkam egallab olishni ta'minlash asosiy vazifa bo'lib turgan bir paytda ta'limning faol shakllari va usullarini, texnik vositalarni yana ham kengroq qo'llash zaruriy ehtiyojga aylanmoqda. Shuni

hisobga olib, afsona va rivoyatlarni o'rganishda, ularni o'qitishda darsni ta'sirchan va qiziqarli tashkil etish uchun doska va bo'r, jadval va rasmlar bilan bir qatorda boshqa turli-tuman devorga osiladigan ko'rgazmali vositalardan hamda murakkab texnik apparatlardan foydalanish o'quvchilarning o'quv materialini chuqur tushunib olishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abu Ali Ibn Sino haqida afsonalar, rivoyatlar, hikoyalar. To'plovchi A.Irisov. – T.: «Yosh gvardiya», 1980.
2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar / Tanlangan asarlar. T.1. – T.: Fan, 1968. – 468 b.
3. Asotirlar va rivoyatlar. To'plab nashrnga tayyorlovchilar: M.Murodov, M.Shayxova. – T.: Yosh gvardiya, 1990. – 128 b.
4. Afsona va rivoyatlar // Razzoqov H., Mirzaev T., Sobirov O., Imomov K. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Darslik. – T.: O'qituvchi, 1980. – B.67-75.
5. Imomov K. Afsona // O'zbek folklori ocherklari. 2-tom. – T.: Fan, 1989. – B.3-31.
6. Imomov K., Mirzaev.T, Sarimsoqov B., Safarov.O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Darslik. – T.: O'qituvchi, 1990. – 304 b.
7. Madaev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2001.
8. Murodov M. Afsonalarda shoir siymosi // O'zbek tili va adabiyoti. – 1967. – 4-son. – B.24-28.
9. Ro'zimboyev S., Bekchanov Sh. Afsona va tarixiy haqiqat. – Xiva, 2000.